

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ZARIPOV AZAMAT G‘ULOMOVICH

ABDULLA ORIPOVNING PEYZAJ LIRIKASI BADIYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

| | |
|--|----|
| Zaripov Azamat G‘ulomovich Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati..... | 5 |
| Зарипов Азамат Гуломович Художественное мастерство пейзажной лирики Абдуллы Орипова.... | 25 |
| Zaripov Azamat Lyrical art of scenery poetry by Abdulla Oripov..... | 52 |
| E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works..... | 57 |

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ZARIPOV AZAMAT G‘ULOMOVICH

ABDULLA ORIPOVNING PEYZAJ LIRIKASI BADIYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1572 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ulug‘ov Abdulla O‘zbekovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertasiya himoyasi Alisher Navoiy Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 12-iyun soat 10⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertasiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (289-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertasiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

H.A. Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

B.N. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
filol.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotning inson ruhiyatini, o‘y-kechinmalarini, orzu-ideallarini obrazli aks ettirish xususiyati, odamzod qismati, shaxs va jamiyat munosabatlari bilan bog‘liq estetik qarashlarni aksar tabiat tasviri yoki majoziy obrazlar zahirida tasvirlash usuli yuzasidan izchil izlanishlar olib borilmoqda. Chunki tabiat – badiiy adabiyotning asosiy tasvir ob‘ekti, ijod ahlining ilhom manbai. Inson ruhiyati va dunyoqarashining tabiat bilan uyg‘unligi barcha zamonlarda ham badiiy adabiyot rivojida alohida o‘rin tutgan.

Dunyo adabiyotshunosligi ijodkor adabiy-estetik tafakkuri rivojida tabiat, xususan olam mavjudligining asosi sanalgan to‘rt unsur – tuproq, suv, havo va olov konseptual ahamiyatga ega ekani masalasiga doimiy e‘tibor qaratib keladi. Inson va tabiat munosabatlari badiiy adabiyot, xususan, uning eng faol turi bo‘lgan she‘riyatning nodir namunalari yaratilishi uchun nechog‘liq muhim bo‘lsa, peyzaj tasviri shoir yoki adib estetik idealini belgilashda shunchalik ahamiyatlidir.

O‘zbek adabiyotshunosligida inson va tabiat uyg‘unligi konsepsiyasining badiiy ifodasi hamda bu jarayonga xos poetik omillar bo‘yicha muntazam tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida maktab yaratgan buyuk shoir, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning peyzaj lirikasini ayni aspektida o‘rganish adabiyotshunoslikni yangi ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishi shubhasiz. Chunki “Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘targan nodir iste‘dod egasi edi. Uning yuksak badiiy, teran falsafiy she‘rlari xalqimiz ko‘nglidan chuqur joy olgan. Dramatik va publitsistik asarlari, doston va tarjimalari adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan. Abdulla Oripov O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatida xalqimiz qalbida mangu yashaydi”¹. Darhaqiqat, Abdulla Oripovning milliy poetik tafakkur takomiliga qo‘shgan beqiyos hissasi, inson-jamiyat-tabiat munosabatlari, peyzaj va hayot falsafasi uyg‘unligiga oid nodir nazmiy asarlari xalqimizning folklor namunalari, mumtoz she‘riyat va dunyo adabiyoti yutuqlarini sintez qilishi, shoir asarlarida peyzaj orqali o‘zbek xalqining so‘nmas ruhi, asl tabiati namoyon bo‘lishi masalalari tadqiqini amalga oshirish dolzarb ilmiy muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” mavzusidagi ma‘ruzasida hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш. Одамлар яхши яшаши учун зарур шароитлар яратиш – барча рахбарларнинг асосий вазифасидир. // Халқ сўзи, 2017 йил 28 февраль, 40 (6998)-сон.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek dabiyotshunosligida Abdulla Oripov she‘riyati, dostonlari, ularning millat estetik tafakkuri takomilidagi o‘rni yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Shoirning adabiy portreti, ijodining takomil bosqichlari, poetik obraz yaratish mahorati tekshirilgan. Ijodkorning lirik asarlari, milliy xarakter yaratishda amalga oshirgan poetik kashfiyotlari, ijod tutumi muayyan darajada tahlil etilgan². Abdulla Oripov she‘riyatida milliy xarakter ifodasi, ijod tutumi, shoir nazmida mumtoz estetik tafakkur yutuqlari, xususan, Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlarining yangilanishi hamda ba‘zi obraz va ramzlar tasvirining rivojlantirilishi, psixobiografik xususiyatlari kabi muammolar muayyan darajada o‘rganilgan³. Shoir she‘riyatida hayot falsafasi va badiiy mahorat uyg‘unligi, mumtoz she‘riyatning asosi bo‘lgan badiiy san‘atlardan foydalanish mahorati, lirikada badiiy so‘z va poetik timsol mutanosibliigi, xalqona tafakkur va pafos munosabati yuzasidan tahliliy fikrlar bildirilgan⁴. Badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi, poetik obraz va umr falsafasi tasviri, ijod laboratoriyasi, estetik tafakkur evolyutsiyasi kabi masalalar yuzasidan ilmiy ishlar bajarilgan. Shuningdek, shoir lirik asarlari milliy ruhning poetik talqinidagi o‘ziga xoslik, hajviy mahorat, badiiy-estetik tamoyillar, lirik kechinmaning poetik tasvir bilan munosabati singari masalalar bo‘yicha ham tekshirilgan⁵.

² Қўшжонов М. Онажоним шеърят. – Т.: Ўқитувчи, 1994; Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Ёш гвардия, 1979; Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. – Т.: Маънавият, 2001; Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: Sharq, 2020.

³ Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. – Т.: Фафур Гулом, 2018; Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Т.: Фафур Гулом, 2007; Жабборов Н. Замон, мезон шеърят. – Т.: Фафур Гулом, 2015; Шодмонов Н. Шоир ижодининг олмос қирралари. // Ўзимники эрур шу созим. – Қ: ҚарДУ, 2011. – Б. 45-53; Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Жўракулов У. Армон талқинлари. // Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. – Б.143-151.

⁴ Ганиев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Т.: Фан, 2007; Ашурова Г.Сўз ва тимсол уйғунлиги. – Т.: Маънавият, 2007; Ҳамдамов А. Абдулла Орипов шеърятда халқона поэтик тафаккур муаммоси. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2011.

⁵ Қосимов Я. Ўзбек шеърятда поэтик фикрнинг янгилашиш жараёни. Филол.фан.номз... дисс. – Т., 1993; Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари. Филол.фан.номз...дисс. – Т., 2004; Акрамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е-80-е годы): Автореф. дисс... докт.филол.наук. – Т., 1991; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърятда психологик тасвир маҳорати. Филол. фан. докт... дисс... автореф. – Т., 1999; Курбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеърятда образлилик. Филол. фан. номз... дисс – Т., 2005; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари. Филол. фан. докт... дисс - Т., 1996; Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини. Филол. фан. докт... дисс - Т., 1994; Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётда насрий шеър. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1995; Маматова А. Ўзбек адабиётда сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадий-эстетик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2000; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърятда бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2018; Равшанова Г. Абдулла Ориповнинг ҳажвнавислик маҳорати. Филол. фан. номз... дисс. – Қарши. 2020; Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеърятда миллий рух ифодаси. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2020; Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2022. Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеърятда лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2022.

A.Ko‘chimovning “Men shoirman, istasangiz shu” kitobi Abdulla Oripovning shaxs va shoir, mutafakkir va arbob, vatanparvar va ijodiy salohiyatini ona xalqining baxti yo‘liga tikkan millatparvar, jamiyatdagi muammolarga faol munosabat bildiruvchi publitsist va notiq sifatidagi fazilatlarini ochib berilgan. A.Erkayevning “Abdulla Oripov dahosi” kitobida shoir estetik olami jahon poetik tafakkuri kesimida tahlil qilingan, ijodkor nazmiy merosining falsafiy-ijtimoiy va adabiy-estetik ahamiyati teran o‘rganilgan. “O‘zbekiston – dilbar vatanim” kitobida shoir muallifligidagi davlat madhiyasi matni va boshqa bir qancha asarlarining yaratilish tarixi yoritilgan. Ijodkor tarjimonlik mahoratining o‘ziga xos tomonlari, Dante Aligerining “Ilohiy komediya”si tarjimasining yuzaga kelishi tarixi, Ravenna shahrida o‘tkazilgan dantexonlik tadbiridagi ishtiroki, asarlarining rus tiliga tarjimalari chuqur ilmiy tahlil etilgan⁶.

Mazkur tadqiqot va ilmiy-ommabop asarlarda Abdulla Oripov peyzaj lirikasining badiiyati muayyan darajada tadqiq qilingan. Biroq ushbu ilmiy muammo monografik yo‘nalishda maxsus o‘rganilgan emas. Holbuki, ulug‘ shoir peyzaj tasvirining betakror namunalarini yaratibgina qolmay, publitsistik va ma‘rifiy chiqishlarida, adabiy suhbatlarida tabiatga munosabati, mehr-muhabbati va tabiatning inson psixologiyasiga ta‘siri to‘g‘risida betakror fikrlarni bildirgan. Bu esa, dissertatsiyada qo‘yilgan ilmiy muammoning monografik aspektida maxsus tadqiq qilinishi adabiyotshunoslik uchun zarur ekanini anglatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Oripov she‘riyatida peyzaj lirikasining shakl va mazmun, obraz va uslub mutanosibligini ta‘minlashdagi poetik funksiyasini ochib berish hamda hayot falsafasi va nazmiy tafakkur uyg‘unligi qonuniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Oripov she‘riyatida peyzajning poetik tasvir vositasi sifatidagi funksiyasini yoritish, peyzaj lirikasining mavzuiy tasnifini amalga oshirish va shoir nazmiy asarlarida tabiat manzaralari ifodasining xos xususiyatlarini aniqlash;

shoirning peyzaj lirikasida falsafiy mohiyat va poetik ifoda, inson va tabiat, peyzaj tasviri va ijodiy jarayon uyg‘unligiga xos estetik qonuniyatlarni ochish;

ijodkor she‘riyatida peyzaj detallarining poetik vazifasini asoslash va peyzaj tasvirida poetik obrazning namoyon bo‘lishi tamoyillarini ko‘rsatish;

peyzaj lirikasi tahlili asosida shoir uslubi va ijodiy individuallikning o‘rni dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida Abdulla Oripovning sakkiz jildlik asarlari (2001–2016), “Tanlangan asarlar”i (2019), “Everest va ummon” (2015), ikki jildlik

⁶Кўчимов А. Мен шоирман, истасангиз шу... – Т.: Фафур Фулом, 2016. – Б.198; Саидов А. Мирзо Ф. Сен баҳорни соғинмадингми? – Т.: Mashhur-press, 2019; Эркаев А. Абдулла Орипов даҳоси. – Т.: Олтин нашр, 2021; Саидов А., Қаландаров А., Мирзо Ф. Ўзбекистон – дилбар Ватаним. – Т.: O‘zbekiston, 2021.

“Tanlangan asarlar”i (2021) va “Shoirning tug‘ilishi” (2021) singari nazmiy to‘plamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Abdulla Oripov peyzaj lirikasining ilmiy tasnifi, poetik tasvir o‘ziga xosligini ta’minlashdagi o‘rni, tabiat obraz va ramzlari orqali inson-tabiat-jamiyat munosabatlari tahlili muammolarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, biografik, sotsiologik va germenevtik usullardan istifoda etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Oripov she’riyatida peyzaj tasviri tabiatni shunchaki his qilish natijasi emas, shaxs, tabiat va jamiyat munosabatlarining badiiy obraz orqali intellektual tafakkur asosida ijodiy idrok etilishi va umr falsafasini poetik ifodalash obyektini ekani, ijodkor tabiat hodisalarini estetik mushohada obyektini o‘laroq anglab, lirik kechinmalari va falsafiy fikrlarini peyzaj tasviriga sintezlashi dalillangan;

peyzaj lirikasi shoir falsafiy tafakkurining asosi va sof lirik kechinma ifodasining manbai ekanligi, Abdulla Oripov tabiat timsollari orqali Vatan va xalq obrazini individual tasvirlagani, nazmiy asarlarida ijtimoiy voqelik va badiiy talqinni uyg‘unlashtira bilgani, bolalik xotiralari hamda ona qishlog‘i bilan bog‘liq taassurotlarni o‘ziga xos ifodalagani, bu turkum she’rlarning shoir ijodiy merosida tutgan o‘rni asoslangan;

lirik asar ramziylikka asoslanishi, Abdulla Oripov uchun peyzaj poetik tasvir vositasi ekani, shoir tabiat vositasida ijod konsepsiyasini – Vatan va millat ozodligi, komil inson va mukammal jamiyat haqidagi estetik idealini ifodalashi, zohiran sof tabiat tasviriga bag‘ishlangan “Bahor” she’rida ushbu fasl vositasida millat taqdirini, ona xalqi boshidan o‘tgan o‘g‘ir davrlar ziddiyatlarini hurriyat bahori ramzi orqali tasvirlagani aniqlangan;

shoir she’riyatida peyzajga doir obrazlar inson-tabiat-jamiyat uchligida aks etgan falsafiy konsepsiyasini, shoir estetik dunyosi va o‘ziga xos ko‘zqarashlarini mujassam etishi, peyzaj orqali milliy ruhiyat va xarakter, shuningdek, umuminsoniy g‘oyalar mohiyatini yoritilishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

shoir she’riyatida badiiy-tasviriy vositalar peyzaj lirikasiga xizmat qildirilgani ilmiy dalillangan;

ijodkor she’riyati tahlili asosida peyzaj lirikasida falsafiy mazmun va badiiy shaklning o‘rni aniqlangan;

obraz tasviriga san’atkorona yondashuv mezonlari hamda ona yurt tabiatining poetik ramzlari orqali ifodalanishi yo‘llarini tahlil etish orqali o‘zbek peyzaj lirikasining istiqbol davridagi takomili bosqichlari ko‘rsatilgan;

Abdulla Oripov she’riyatida tabiat tasvirining millat estetik tafakkuriga ta’siri, shaxs – tabiat – jamiyat munosabatlarining badiiy talqini xususiyatlari yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli

tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Abdulla Oripov nazmiy merosiga bag'ishlangan tadqiqotlardagi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi, adabiyotshunoslikka poetik mazmun, poetik shakl va poetik obrazning peyzaj lirikasidagi o'rni hamda tabiat va inson, tabiat va jamiyat munosabatlarining falsafiy-estetik talqiniga doir yangi xulosalarni taqdim etishi dissertatsiyada erishilgan ilmiy natijalardir.

Yangi o'zbek she'riyatining takomil bosqichlari va rivojlanish tamoyillariga doir bundan keyingi tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy ta'lim muassasalarining "Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili)" bakalavriat yo'nalishida "Hozirgi adabiy jarayon", "O'zbek adabiy tanqidi", "Adabiyot nazariyasi" singari fanlardan ma'ruza mashg'ulotlari o'tishda, o'quv adabiyotlari yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi kabi omillar ushbu tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulla Oripov she'riyatida peyzaj lirikasi badiiyati tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Abdulla Oripov she'riyatida peyzaj tasviri tabiatni shunchaki his qilish natijasi emas, balki uni muayyan badiiy obraz va timsollar orqali estetik idrok etish va san'at darajasida tasvirlash hosilasi ekani, ijodkor tabiatni jamiyat voqeligi bilan uyg'un tasvirlab, o'z badiiy niyatini, lirik tuyg'ulari-yu falsafiy to'xtamlarini peyzaj tasviriga sintezlay olishi isbot etilgani hamda shoir peyzaj lirikasining tengsiz ijodiy taxayyul va estetik tafakkur omili hamda lirik kechinma natijasi sifatidagi qimmat, Vatan va xalq obrazlarining ohorli tasviri, shoir ruhiyatini ijtimoiylik vositasida ifodalash va peyzajdan biografik holatlar tasvirini berishda foydalanish kabi usullarga tayanishi bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022 yillarda bajarilgan "A-OT-2019-10 – "O'zbek tilida neyning: me'yoriy huquqiy asoslarini yaratish" amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2023-yil 19-dekabrda 01/4-2243-son ma'lumotnomasi). Natijada shoir peyzaj lirikasi – tabiat ramzlari orqali teran falsafiy tafakkur va badiiy talqinni sintezlash, sof lirik kechinmani ifodalalash; Vatan va xalq obrazlarini betakror tasvirlash, ijtimoiy voqelikni suvratlantirish, o'tmishga ekskurs, ya'ni bolalik va o'smirlikni hamda ona qishloqni xotiralash usullariga tayanishi bilan bog'liq ilmiy qarashlar yangi nazariy xulosalar bilan boyitilgan;

lirik asar ramziylikka asoslanishi, Abdulla Oripov uchun peyzaj poetik tasvir vositasi ekani, shoir tabiat vositasida ijod konsepsiyasini – Vatan va millat ozodligi, komil inson va mukammal jamiyat haqidagi estetik idealini ifodalashi, zohiran sof tabiat tasviriga bag'ishlangan "Bahor" she'rida ushbu fasl vositasida millat taqdirini, uning bir tomondan shonli, ikkinchi tarafdan, og'ir va ayanchli o'tmishini hurriyat bahori istiorasi vositasida suvratlantirgani isbot etilganligi hamda shoir she'riyatida tabiatga oid obrazlar inson, tabiat va jamiyat uchligi misolidagi falsafiy konsepsiyasini ifodalagani, peyzaj ramzlari orqali milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar talqiniga doir ilmiy qarashlardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan "PZ-

2020042022 – “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-dekabrda 01/4-2244-son ma’lumotnomasi). Natijada shoir lirikasida peyzaj vositasidagi poetik obrazlar inson-tabiat-jamiyat triadasi bilan bog‘liq hayot falsafasini lingvodidaktik aks ettirishiga oid ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning ilmiy natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalaridagi ma’ruzalarda aks etgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot ilmiy muammosi bo’yicha jami 11 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shundan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot konsepsuyasidan kelib chiqib, ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tarkib topgan bo’lib, umumiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, predmeti, fan va texnologiyalar rivojida ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Peyzaj lirikasining badiiy-estetik xususiyatlari”** tadqiqiga big‘ishlangan birinchi bobning dastlabki fasli **“Peyzaj – poetik tasvir vositasi”** deb nomlangan. Tabiat badiiy adabiyotga estetik qimmat beruvchi buyuk kuch sifatida ijodkor dunyoqarashining shakllanishi va ijodiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ijodkorning tabiatga munosabati, asosan, quyidagi ikki bosqichda kechadi: a) tabiat hodisalarini estetik idrok etish; b) peyzajning badiiy tasviri.

Badiiy adabiyotda tabiat manzarasi shunchaki tasvirlanmaydi, uning asosida ijodkor qismati, his-tuyg‘ular olami, ijtimoiy-estetik qarashlari yotadi. Peyzaj lirikasini o‘rganish asosida har bir davr odamlarining olamga munosabatini aniqlash mumkin. Jamiyatdagi norasolikdan iztirob chekkan ijodkor ona-tabiat bag‘riga qaytishni istaydi, jamiyat tushunmagan, eshitishni xohlamagan dardlarini aytib, tabiat bilan hasratlashgisi keladi. Shu tariqa peyzaj lirikasining mohiyatini belgilovchi yetakchi tamoyillar: olamni badiiy idrok etish, tabiatdan o‘z dardlariga malham izlash, tabiat ohanglaridan she’riy shakl axtarish, o‘z ijodiy iqtidorini tabiatning yaratuvchilik qudrati ila qiyoslash, tabiatni asrashga chorlash, tabiatga aylanish istagining poetik talqini yuzaga keladi. Bularning barchasi tabiatning falsafiy-estetik mohiyatini chuqur tahlil etish uchun eng avvalo uni yuksak did va pokiza qalb bilan his qila bilish zarurligini ko‘rsatadi. “Ajoyib tabiat manzaralari

shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi"⁷. Zotan, tabiat kishilik jamiyati taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiatning badiiy ifodasi inson ma'naviyatini boyitishdek ulug'vor maqsadlar bilan bog'liq holda poetik talqin qilinadi.

Tabiatning poetik maqomiga xos belgilardan yana biri shundaki, odatda lirik qahramon o'zi intilgan olam bilan uyg'unlashib ketadi. Qahramonlarning ruhiy holatini, tashqi qiyofasini tasvirlashda ijodkor tabiat hodisalariga tayanadi. "She'riyat tabiatdan nafaqat badiiy shakl, balki butun olamga xos tabiiylik ruhini topa oladi"⁸. Odatda ijodkor tabiatni shunchaki his qilmaydi, balki uni muayyan poetik obraz va ramzlar vositasida idrok etadi. Tabiatni jonlantirib, uning sirli qo'shig'iga badiiy shakl beradi, ya'ni tabiatdan olingan tuyg'ularni misralarga ko'chiradi. Tevarak-atrofdan taralayotgan dilrabo ohanglarga quloq tutgan shoir she'riy vaznlarga monand tovushlar silsilasini izlaydi. Chunki tabiat ijod ahli qo'nim topishi mumkin bo'lgan yagona badiiy mo'jizalar olamidir.

Shoir tabiat qo'shiqlariga quloq tutib, uni yorqin misralarga jo qilish bilangina cheklanib qolmay, o'zi ham tabiatga aylanishni, odam bolasining ibtidosi bo'lmish ona zaminga qaytishni o'ylaydi. Yassaviyning "Tuproq bo'lg'in, olam seni bosib o'tsin", degan buyuk hikmatida, Tilak Jo'raning "yomg'ir bo'lg'im, daryo bo'lg'im bor edi", degan mungli armonida, Sadridin Salimning "Yo'q, men daraxt bo'lolmayman", deya hayrat-la hayqirishida ham ana shu poetik haqiqat mana man deya bo'y ko'rsatib turibdi. Bunday nazokatli tuyg'ular o'zini tabiatning egasi emas, balki uning oddiy bir zarrasi deb bilgan barcha hassos ijodkorlarning she'rlariga xosdir. V.G.Belinskiy shunday yozadi: "Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg'u ato qilgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi. Poeziya o'zidan tashqari bo'lgan hech bir maqsadni ko'zlamaydi. Bilimdagi haqiqatdek, harakatdagi ezgulikning o'zi maqsaddir".⁹ Chindan ham, "harakatdagi estetika" nazmning xarakterini belgilaydi. Unda jami fazilatlar - botiniy haqiqat, ijodkor xakteri va hayotiy holatlar sintezlashadi.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatida kechinmalar aksar tabiat orqali suratlanadi. Shoir his-tuyg'ularining poetik fikrga aylanish holatlari, ularni yuzaga chiqarishda qo'llanilgan vositalar peyzaj lirikasining tabiati to'g'risida muayyan tasavvur uyg'otadi. Shoirning "Tong" she'rini olaylik...

*Uyg'on, quyosh o'ynar yuzingda,
Bugungi tong shunchalar go'zal.
Lovullaydi shafaqlar yal-yal,
Nechun xayol qotmish ko'zingda.
Kiprigingda yosh olmos-olmos,
Nechun cho'mding uyquga qayta?
- oltin yoshligimni ko'rdim men,
- Qayda?
- Tushimda...*

⁷ Зотов И. Человек и природа. Русское эссе//Большой мир. – М. 1972. – С.212.

⁸ Эпштейн М.Н. Природа, мир, тайник вселенной. – М. 1990. – С.14.

⁹ Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Адабиёт ва санъат. 1977. – Б.109.

She'rdan lirik kechinma va poetik tasvir san'atkorona uyg'unlashgan. Shoirning ko'plab she'rlarida ota makoni – qadrdon qishlog'ini sog'inish tuyg'usi orqali toza his va ezgu qadriyatlar betakror talqin etiladi. Tabiat manzaralari aniq, shiddatkor, qadrdon qilib tasvirlanadi:

*Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.*

Ushbu she'rdan real hayotiy holat tasvirlangan. Koson tumanining shoir tug'ilib-o'sgan Neko'z qishlog'idagi tabiat jonli tasvirlangani shoirning hamma ko'rib turgan borliqda boshqalar ilg'amagan go'zalliklarni mushohada eta olgani isbotidir. She'r – shoir ko'z ochib ko'rgan “kichik Vatan” tabiatidan ilhom hosilasi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida **“Peyzaj lirikasining mavzuiy tasnifi”** masalasi o'rganildi. Abdulla Oripov she'riyatida tabiatni poetik talqin qilish usullari rang-barang bo'lib, ijodkorning badiiy mahorati uning falsafiy-estetik qarashlariga bog'liq holda quyidagi shakrlarda namoyon bo'ladi:

Peyzaj ijodkor falsafiy tafakkurining omili sifatida. Shoir lirikasidagi deyarli har bir element falsafiy mohiyatni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Peyzaj yordamida shoir falsafiy fikr salmog'ini oshiradi. “Burgut” she'ri buning isbotidir. Yosh burgutning kumushrang bulutlar aro, ularning parlarini to'zgitib uchish tasviri asta-sekinlik bilan savolga aylanadi: *“Uchmoqda! Qayerga? Cho'qqiga! Nechun?”* Shoir savollar asnosida ijodiy maqsadi sari yetib keladi:

Axir, ne bo'lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk uchishga yarasha maqsad!

Peyzajdan bu qadar katta falsafiy umumlasmaga kelish, bunday poetik xotimani yaratish Abdulla Oripov she'riyatining xos xususiyatidir. Uning teran nigohi nainki ko'z, balki qalb bilan ham ko'ra oladi va go'zal badiiy-falsafiy topilmalar yaratadi.

Peyzaj – sof lirik kechinma vositasi. She'rning asl qudrati unda aks etayotgan lirik kechinmaning betakrorligi va individualligida namoyon bo'ladi. *“Yurgil, dalalarga ketaylik, do'stim, Diqqinapas uyda yotmoq paytimas”* degan samimiy va yuksak badiiy fikrni faqatgina peyzaj vositasida shunday betakror ifodalash mumkin. Bog'lar qo'ynidagi shabnamning shovullashini tinglash, tuman ichra tongning bo'zarayotganini ko'rish, quyosh nurlarining erinchoqligini anglash uchun shoirona qalb va nigoh kerak. Ijodkor “Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir etishni, unda go'zallik tuyg'ularini tarbiyalashni ham ko'zda tutadi”¹⁰. Go'zallikda esa ulkan mantiq va falsafa yashirin. “O'rmon” she'rida ayni shu jihat kuzatiladi:

*Yalang'och, sarg'aygan, kimsasiz o'rmon,
Boshingda charx urar kuzgi dovullar.*

Tasvirda yolg'izlik, tushkunlik aks etgan. O'rmon yalang'och va yupun, tegrasida hech kim qolmagan. Huvillagan va kimsasiz, boshi uzra faqatgina kuzgi

¹⁰ Султонова М. Пейзаж санъати. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 9.

dovullar charx uradi. Manzara qanchalik ayanchli bo‘lmasin, shoir umid uzmaydi: *Sening yaproqlaring esa bearmon, Bahor qo‘shig‘ini aytib shovullar*. Ayni tasvir lirik kechinma mohiyatini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Ijodkor muhim hayotiy falsafani topadi: umid va kurashchanlik. Avji xazon pallasida ham o‘rmon taslim bo‘lmay, bahor qo‘shig‘ini kuylashi boisi shunda. O‘rmon, ehtimol, shoir yoki o‘quvchi ramzidir. Xulosa: inson yiqilganda emas, umidini uzganda, kurashmay qo‘yganda yengiladi. Shoir she‘r tagmatniga ana shu falsafani singdiradi.

Peyzaj vositasida Vatan va xalq obrazi mohiyatini ochish. Shoir she‘riyatidagi konseptual ahamiyatga ega obrazlar bu – Vatan va xalq. Tabiat – vatan timsoli. Yulduzlar – yurt osmoni, giyohlar – kindik qoni tomgan zamin, tog‘lar – mag‘rur eli, tuproq – xokisor vatandoshlari ramzi. Moviy kengliklarda o‘ynagan bu shamol shoirning bola qalbimikan, degan o‘y o‘tadi xayoldan. Chunki bu bahor shamoli, ehtimol, bolalik shamolidir. Shu sabab toza va musaffodir. Inson umrining bahori – yoshlik, eng pokiza, musaffo lahzalari – bolalik. Eng asosiysi, bu bahor, bu kengliklar Vatan bilan bog‘liq: *Kengliklar bag‘riga uraman o‘zni, Ko‘zimga ko‘ringay dilbar diyorum*. Tabiat motivi Abdulla Oripov ijodida Vatan va xalq timsolini yaratish uchun eng asosiy va muhim estetik vositadir. Ijodkor ideali ushbu tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Bu hol shoirning Jeneva safarida yozilgan “Bulutli bir kun” she‘rida, ayniqsa, yorqin aks etadi: *Jenevada bugun bulutli havo, Kechagi charog‘on, xush onlar qani? Go‘yo Jannat emas bu go‘zal ma‘vo, Bugun yotog‘im ham g‘urbat maskani*. Jeneva havosi shoir yuragini siqmoqda. Ammo bu hol faqat unga tegishli. Boshqalar esa bu havoga e‘tiborsiz, parvosiz. Ular juda baxtli. Nega? Bu savolga muallifning o‘zi javob topadi: *Axir men bir holni unutibman-ku, Ular vatanida yuribdi, axir*. Ijodkor tabiatdagi ma‘lum vaziyatdan Vatan bilan bog‘liq kechinmalarni tasvirlashda katta mahorat bilan foydalanadi va o‘zining buyuk iste‘dodini yana bir karra namoyish etadi.

Peyzajda ijtimoiylikning aks etishi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan voqelik ijodkor qalbida aks sado beradi. Abdulla Oripov lirikasida ijtimoiylikning o‘ziga xos falsafiy-badiiy ifodasi, voqelikka munosabatning tabiat manzarasi bilan uyg‘unlikda tasvirlanishi yetakchi usullardan biridir. “Saraton” sarlavhali she‘rida shoir tong g‘unchasi lab ochmasdan ham avval, nahorgi farog‘atidan kechib, uyquga to‘ymagan dehqon holidan xavotirga tushadi. Uning mehnat-u zahmatda kechayotgan umriga befarq qaray olmaydi. Peyzaj shoirga ulkan iztirobni, ijtimoiy og‘riqni badiiy shaklda yetkazish vositasidir. She‘rdagi kuzgi rayhonday ma‘yusgina o‘sgan rangpar singil obrazi tashigan ijtimoiy dard ham buning isbotidir.

Mezonlar uchmoqda, havo billurdan, Yana hislarimga kel, deb yolbordim misralaridagi betakror tasvir shoir lirikasida peyzajning chinakam san‘at darajasiga yuksalganini ko‘rsatadi. Havoning billurdan ekani va bu lahzada shoirning hislariga “kel” deya yolvorishi – chinakam badiiy topilma! Ayni shu kabi tasvir misradan-misraga o‘tgan sari kuchayib boraveradi: *Xazonlar to‘kildi, men ham qalbindan, Badbin o‘ylarimni quvib yubordim*. Ijtimoiylik masalasini badiiy asarda peyzaj bilan uyg‘unlikda aks ettirar ekan, shoir davrdan oldinlab ketadi. Jamiyat hayotida kuzatiladigan ikkiyuzlamachilik, maddohlik, insonlar orasida kamyob

bo‘lib borayotgan samimiyat va mehr-muhabbat, oqibat va sadoqat, qalblarni tark etayotgan iymon va shukr – hammasi peyzaj vositasida betakror tasvirlanadi.

Tabiat tasviri orqali o‘tmish tasvirini yaratish. Shoir kechinmalari aksar bolalik, yoshlik, kechagi kun, olislarda qolgan qishloq – bir so‘z bilan aytganda, o‘tmish bilan bog‘liq bo‘ladi. “Qishloq oqshomlari” she‘rida ayni shu holatning betakror talqini kuzatiladi. Shoir doimgidek voqelikni qishloqning manzarasi, uning bag‘riga cho‘kayotgan oqshomning go‘zal tasviri bilan boshlaydi:

Namozgar ham tushdi,
Shom kirmoqda zil.
O‘chmoqda qontalash shafaqning rangi.
Salqin havolarda harirday yengil,
Muallaq ko‘rinar yo‘llarning changi.

Betakror tabiat tasviri lirik kayfiyatga bog‘lanadi. Shomga “zil” sifatlashi ishlatilishi, qontalash shafaqning rangi o‘chgani zamirida shoir kechinmalari turadi. Keyingi bandlarda ham peyzaj bilan bog‘liq betakror tashbehlar qo‘llanadi: “*Terak uchlarida oftobning yuqi, so‘nggi cho‘g‘larini tashlar o‘choqqa*”, yoxud “*chiqar bolakaylar uylardan gurros, Shamolda dovuchcha to‘kilgandek duv*”. Bir misradan boshqasiga o‘tgan sari bu kabi tasvirlar yanada teranlashib, tiniqlashib boradi. She‘r yakunida asl mohiyat yorqin ifodalanadi: *Yumush bilan o‘tdi axir uzun kun, Lekin mitti qalbdan uxlamas havas*. Bu o‘rinda peyzaj og‘ir mehnat-u mashaqqatlar girdobida kechgan bolalik xotiralarini xuddi kino lentasi kabi namoyon etadi.

Peyzaj tasviri bilan boshlangan she‘r lirik kechinmaning shunga monand ohorli talqini bilan davom yakunlanadi. Dalada o‘t o‘rgan bola, olis quduqdan suv tashigan, tushlarida ham ertangi mashaqqatni ko‘rgan kichik jussa ehtimol shoirdir, uning tengqur do‘stlaridir. Lekin ularning hammasi olish o‘tmish quchog‘ida qolgan. Ammo xotiralar muallifning qalbida yashab kelayotir. Ijodkor bot-bot ayni xotiralarga yuzlanar ekan, tabiat tasviri vositasida o‘tmish qiyofasini, bolalik dunyosini betakror ifodalaydi. Tabiat tasviri va lirik kechinmaning uyg‘unligi olis o‘tmish lavhalarini she‘riyat muhibi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi.

Umyman, Abdulla Oripov ijodida peyzaj muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shoir ijodida peyzajdan murod faqat manzara tasvirigina emas. Ijodkor peyzaj vositasida, teran hayot falsafasini betakror talqin etadi.

Ishning “**Abdulla Oripov peyzaj lirikasida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi**” tadqiqiga bag‘ishlangan ikkinchi bobi birinchi faslida “**Shoir peyzaj lirikasida sof tabiat manzarasi belgilari**” tahlil etilgan. Shoirning “Ehtiyoj farzandi” kitobida she‘riyat, tabiat va atrof-muhitga munosabat masalalariga doir adabiy-estetik qarashlari berilgan. Go‘zal tabiat manzaralariga xos betakror detallar, tasvirlar shoirga ilhom bergan. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov yozishicha: “Abdulla Oripovning she‘riyat karvoni yo‘l bosarkan, qisqa davr ichida u hayotning ko‘p qirralari xususida she‘r bitdi. Rang-barang fasllar, kuz payti baldog‘idan ko‘chgan barglar, osmonda yaltiragan yorug‘ yulduzlar, har xil navo tarqatadigan qushlar, umrini hayotga – mehnatga bag‘ishlagan mirishkorlar, ularning xirmon-xirmon paxtalari, muhabbat – yor vasli, hijron, bu yo‘ldagi intilishlar...”. Shoir ilk ijodida, 18-20 yosh tevaragida bitgan “Qushcha”, “Yulduzlar”, “Tog‘lar”, “Bahor”, “Yana borliq yashardi...”, “Majnunol”,

“Ko‘klam”, “Shovullaydi tun bo‘yi shamol”, “Kuz manzarasi” kabi she‘rlarida tabiatning hayot kabi real va jonli manzaralarini yaratgan. “Qushcha” she‘ridan olingan iqtibos ham buni tasdiqlaydi:

*Goh bu toqqa, goh gulga qo‘nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan
Qayda eding bahor kelguncha.*

Shoir jonivorlarning fe‘l-atvorini inson o‘ylari va hayratlari bilan uyg‘un tasvirlaydi. Tabiat va insonni yaxlitlikda ko‘rib, o‘z hislaridan tabiat sari bir ko‘prik soladi:

*Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha.*

Ijodkor tabiat manzarasini hassos rassom kabi, hatto rangtasvirda ham aks ettirish mahol bo‘lgan tarzda yorqin va rangin bo‘yoqlarda suratlantira oladi.

Buning yana bir sababi, A.Oripov o‘zidan oldingi lirik peyzaj ustalari ijodini chuqur o‘rgangan, lekin tamomila original yo‘ldan ketgan. “Klassik shoirlarimiz bahor mavzusiga qo‘l urganlarida, uni go‘zal armon sifatida ham kuylab o‘tganlar. Katta-yu kichik barcha shoirlarning bahor haqidagi she‘rlarini to‘plaganda, bilmadim necha yuz jild bo‘lar ekan! Bu tabiiy bir holdir. Chunki, bahor degani sevgi degani hamdir”¹¹. Tabiat tasviriga bag‘ishlangan she‘rlari orasida “Bahor” (1967) she‘ri shoir dahosinining favqulodda noyobligini namoyon etadi. Bu she‘r adabiyotimizga A.Oripovdan keyin kirgan iste‘dodlarga poetik maktab vazifasini o‘tagan, deyish mumkin. Shoir Vafo Fayzulloh: “XX asr o‘zbek she‘riyatida bu mavzuga bag‘ishlangan she‘rlar ichida A.Oripovning “Bahor” she‘riga biror bir she‘rni tenglashtira olmayman”, deya e‘tirof etadi”¹². Haqiqatan, “Bahor” she‘ri ko‘lamdorligi va tabiat tasviri zamiridagi mohiyatning teranligi, inson hayoti va millat kechmishi betakror talqin etilgani bilan alohida ajralib turadi. Sof tabiat manzarasi tasvirlangan ushbu she‘r tagmatnidan, millatning orzu-armonlari, o‘sha kezlari u boshdan kechirayorgan sho‘rolar mustamlakasi zulmu qabohatiga, deyish mumkin. “Nima bu qishdan ham qattol qullik, kishanlik kunlarni eslatmaydimi?! Ehtimol mutelikni anglashnigina “Og‘ir surur” desa bo‘ladi”...

*Sen kelding, uyg‘ondi yana sho‘x olqish,
Yig‘lagan ko‘zlarga tushgan kabi nur.*

Bu hurriyat bahorining orzusi, bu millat bahorining ko‘z ochishiga ichki niyat. Yig‘lagan ko‘zlar istibdod zamonidagi ko‘ngli o‘ksik, ruhi yarador, boshi egikligimiz timsolidir. Abdulla Oripov hurlikni yig‘idan boshqa narsani bilmaydigan ko‘zlarga nurning qaytishi, deya talqin etadi.

Ikkinchi faslda **“Shoir peyjaz lirikasida falsafiy mohiyatning badiiy talqini”** masalasi tahlilga tortilgan. Abdulla Oripov – faylasuf shoir. Ijodkor she‘riyatidagi falsafiy umumlashmalar, tahlillar, o‘gitlar, saboqlar shohbayt bo‘lib, o‘quvchiga zavq-shavq berishi bilan birga uning badiiy didini, tafakkurini

¹¹ Орипов А. Эхтиёж фарзанди. – Т.: Ёш Гвардия, 1988. – Б.182

¹² Файзуллоҳ В. Баҳор марҳамати // – Т.: Ёшлик, 2001. 2-сон.– Б. 2.

yuksaltiradi, hayotga bo‘lgan qarashlarini teranlashtiradi. Lirik, hayot falsafasi va yuksak mahorat uyg‘unlashib ketadi.

1. Shoirning ilk ijodidan boshlangan ba‘zi bir mo‘jaz she‘rlarida jonsiz va jonli tabiat she‘rning asosiy mazmuni qilib olinadi va ajoyib, real manzaralar tasvirlanar ekan, falsafiy xulosa bilan yakunlaydi. Masalan, “Burgut” she‘rida yosh burgutning ko‘kda shiddat bilan uchib, kumush bulutlarni par kabi to‘zg‘atayotgani, ishonch bilan qoyalar, cho‘qqilar sari yo‘l olgani tasvirlanadi. Burgut nima uchun va qaerga uchyapti, degan savollar o‘quvchini ham o‘ylantirib qo‘yadi. She‘r finalidagi xulosa teran hayot falsafasini aks ettiradi: *Axir, ne bo‘lardi bersang tabiat, Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad*. Shoirning “Giyoh”, “Chaqmoq”, “Burgut qismati”, “Holat” kabi o‘nlab she‘rlarida bir-birini takrorlamagan, real hayotiy asosga ega tabiat hodisalari, nabotot va hayvonot olami vositasida falsafiy qarashlari betakror talqin etiladi.

2. Abdulla Oripov she‘riyati avvalo, halol, mehnatkash, jafokash, mard, tanti xalqimizning ma‘naviy dunyosini mujassam etgani bilan qimmatlidir. Shoirning “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni?”, “O‘zbekistonda kuz” kabi she‘rlari buning isbotidir. Jumladan, “O‘zbekistonda kuz” she‘rida real manzaralar qatorida tabiatdan topilgan go‘zal tashbehlar e‘tiborni tortadi. “Diqqanafas uy”, “Bir pari faslning og‘ushida mast” olam, “shabnamning shovullashi”, “bo‘zargan tonglar”, “erinchoq quyosh”, “bargi xazonlarning nafis yaltirashi” kabi kutilmagan peyzaj detallari o‘quvchini sehrlab qo‘yadi.

3. Shoirning yana shunday she‘rlari borki, bularni shartli ravishda sof falsafiy she‘riyat namunasi deyish kerak. Abdulla Oripovning hikmatga yo‘g‘rilgan to‘rtliklaridagi falsafa va hikmatning ilk she‘rlari orasida ham uchraydi. “Qanot” she‘ri buning isbotidir:

*Insonda qanot yo‘q,
Achinmang bunga,
Zotan unga yurak–sabot berilgan.
Qushda-chi, sabot yo‘q, shuning uchun unga
Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.*

She‘rda inson fazilatlarini talqini uchun qush obrazi vosita bo‘lgan. Shoirning xuddi shu ruhdagi “Mayna” she‘rida mayna boshqa qushlarga solishtirilar ekan, she‘r falsafiy saboq bilan yakunlanadi:

*Ulgursa, yer yuzin aylardi taqir,
So‘ngra bir-birin yeb, topardi barham.
Dunyoda insofli qushlar ko‘p axir,
Ular soyasida yashar mayna ham.*

Shoir iqtidorining favqulodda ko‘rinishlaridan biri mustabid sho‘rolar zamonida ham haqiqatni ayta bilishida namoyon bo‘ladi. Tilla baliqcha, tulki singari ramziy obrazlar ana shu poetik vazifani bajarishga xizmat qilgan. “Tulki falsafasi” she‘rini miyig‘ida kulib o‘qigan she‘rxon kuchli kinoyani sezmasligi mumkin emas. Shoir tulkisifat kimsalarga nisbatan nafratini ularning o‘z tilidan kinoya orqali ifodalalar ekan, o‘quvchini hayotga teranroq nazar tashlashga undaydi. “Ikki kalamush”, “Echki”, “Qayrag‘och”, “Qonuniyat”, “Maymuniyat” kabi she‘rlari ham tabiat vositasida jamiyat tasvirlanganidan dalolat beradi.

4. Bu turkumdagi she'rlar yuqorida hayvonlar obrazi bilan insonning botiniy xatti-harakati chizilgan she'rlarning davomi deyish mumkin. "Hayvonot bog'ida" she'rida shoir mana bunday yozadi:

*Ba'zan ko'p ajibdur dunyoning ishi,
Kim ham bu savdoni o'ylab ko'ribdi.
Hayvonot bog'ida bir telba kishi,
Maymunni masxara qilib turibdi.*

Ushbu mo'jaz to'rtlikda dunyoning ishi deb, olam va odamning yashash qonuniyati, sarvari koinot atalgan insonning ba'zan ayanchli holatga tushgani o'zini hammadan yuqori olib, tabiatga aziyat yetkazishi, tuban ahvoli kulguli voqea o'laroq ko'rsatib beriladi. Shoir shunday yarim kinoyaviy, yarim falsafiy fikrlarini istagan bir jonsiz tabiat detallari orqali ham ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. "Suv" she'rida suvning inson uchun nechog'liq zarurligini birma-bir tasvirlar ekan, o'tkir kinoyaviy xulosaga keladi:

*Xo'sh, undan keyin-chi,
Xo'sh, undan keyin
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida, ba'zida sekin,
Bir-birin tagiga suv quyur.*

5. Ayrim she'rlardagi tasvir, poetik tashbehtar vositasida ramziy, psixologik, real mazmuni ifodalar ekan, ulardagi falsafiy mushohadalar she'rni badiiyat durdonasiga aylantiradi. "Abdulla Oripov uchun zamonning bani insoniyat uchun muhim muammolarini kuylash "Ona sayyora", "Genetika" kabi bashariy she'rlariga ham xos bo'lsa-da, uning ijodiga o'z xalqi, o'z Vatanining zamon bag'rida nola chekib yotgan dardlarini kuylash va badiiy aks ettirish muhimroq o'rin tutishini kuzatamiz".¹³ "Ona sayyora" she'ri ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ushbu she'rning o'n ikki qatorida ona sayyoraning koinotda tutgan o'rnini shoir "salmog'i Quvaning anoricha bor", "Ummonlar ko'rinar qatra yosh misol" kabi sof milliy tashbehtar bilan obrazli tasvirlaydi falsafiy umumlashmalar chiqaradi. "Kenglik nuqtasi", "Dialektika" kabi she'rlarini ham shu jihatdan qimmatlidir.

6. Ba'zi she'rlarida fasllar, oylar, kecha va kunduz kabi o'zgarishlar ohorli tasvirlanishi asnosida hayot falsafasi ham talqin etilgani kuzatiladi. "Yanvar" she'ri buning isbotidir:

*Bu – oyna ko'l emas, qish – bu zamharir
Ko'ngil tublarida sirli xayollar.
Borliq ham misoli o'ychan musavvir
Naqsh etmish derazang uzra savollar.
Zangori bahorni yotar tush ko'rib,
Qaydadir – ummonlar tubida quyosh.
Momo qish oq jujun to'qir o'ltirib,
Kelinchak zaminga yagona sirdosh.*

Kuzatilganidek, manzara bilan xayol o'zaro o'rin almashib, lirik tasvirni kuchaytirish barobarida mushohadaga chorlaydi. Undagi har bir tashbeh yoxud

¹³ Абдулла Орипов – Замондошлар хотирасида. – Т.: Фафур Фулом, 2021. – Б.77.

oyna, zamharir, borliq, musavvir, quyosh, momo, qish, kelinchak obrazlari real tasvirga xizmat qilishi barobarida falsafiy o'ylarni ifoda etadi.

7. Abdulla Oripovning bir turkum she'rlari teran mushohadalarni, falsafiy xulosalarni mujassam etadi. "Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo" misrasi bilan boshlanuvchi she'rida shoir olamni muloqotlar markazi bo'lgan bozorga o'xshatadi va fenomenal salohiyatini ko'rsatadigan xulosaga keladi. "Deydilar it hurur – o'tadi karvon" satri bilan boshlanuvchi she'r hayot falsafasi ohorli tasvirlangani bilan alohida ajralib turadi. Shoir jamiyatdagi salbiy hodisalar vositasida falsafiy qarashlarini ifodalash bilan cheklanmaydi. Ko'ngilni yorishtiradigan, katta-kichik davralarda aytib yuriladigan hikmatlarni ham ijod qiladi:

Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing.

Yulduzday nur sochsin chashming, qarog'ing.

Magar chinor bo'lsang, chinordek yasha,

Bevaqt to'kilmasin biror yaprog'ing.

Uchinchi faslda "Ijodkor she'riyatida peyzaj detallarining poetik vazifasi" tahlil etilgan. Abdulla Oripov she'rlarida mumtoz adabiyotda faol qo'llangan badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgan. Deylik, tog' detali orqali shoir qanday betakror manzara yaratish mumkinligini ko'rsata olgan. "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'rida "Uzoqlarda zalvorli tog'lar", 1966 yildagi sarlavhasiz bir she'rida "Balanddasan tog'lar qoridan", "Shoir" she'rida "Tog'day og'ir yukni kiftida olib", yana bir she'rida "Yugurik suv o'gay tog'lar orasida", "Dunyoni qizg'anma mandan" she'rida "Sen yurgan tog'larda qolmagay izim", "Burgut" degan she'rida esa "Tog'lar ko'ksin qucha olmasman", "Talpinish" she'rida "Bulutlar talpinar tog'larga", "Sayyoh" she'rida "Yo'qlikka singadi tog'lar kelbati", "Xotira" she'rida "Tog'larning qoridek bokira" "Ma'mun akademiyasi" she'rida "Kimlardir ilmda tog' ham bo'ldilar" kabi bir-biridan rang-barang tashbehlar san'atkorona qo'llangan.

Abdulla Oripov lirikasi an'anaviylikka hamohang bo'lgani holda, unda shoirning poetik mahorati, falsafiy-estetik qarashlari betakror ifodalangan. Shu bois shoir o'zi yashagan davr hayoti haqidagi realistik tushunchalarini badiiy tasvir vositalari (o'xshatish, ramz, istiora va sifatlashlar) orqali yuksak badiiyat bilan talqin etadi. Buni shoirning quyidagi she'rida kuzatish mumkin:

Kuylaganim shodlik bilan baxt,

Qadamimda hislar yashirin.

Boshim uzra ona tabiat

Alla aytar, kuylar betinim.

Shoir hayot, tiriklik haqida mushohada yuritar ekan, tabiatning ajralmas qismi bo'lgan quyosh poetik detalidan unumli foydalanadi. Chunki mazkur detal xalq badiiy tafakkurida keng ishlatiladi.

Sho'x yellardek uchgin, ilhomim,

Nurlaringni quyosh bo'lib soch.

Zafarlaring asriy iqbolim,

Senga she'rdan yasagan gultoj.

Shuningdek, she'rda daryo va to'lqin kabi badiiy detallardan ham istifoda etiladi. Shoir ularga yangicha ma'no yuklashga intilmaydi, balki qattiqlik va

jo'shqinlik orasida real jimgina harakatni ko'rsatish bilan kifoyalanadi. Shu bilan ham umr daryo ekani, uning turli darajadagi oqimlari borligini eslatadi. Shunday lahzalarda sokinlikda, jimgina yashash ham katta matonat talab etishi anglanadi.

*Daryo oqar sokin va jimjit,
O'yga cho'mmish moviy to'lqinlar.
Uyqudagi qiz kabi sokin,
Yengil, nafis fusunkor yellar!*

Shoir peyzaj yordamida badiiy olam yaratar ekan, tabiat tasvirining har bir detaliga yangi ma'no yuklab, so'zning boshqa bir semantik qirrasini ochib beradi. She'rda muallif badiiy tafakkurning takomili yoki lirik kechinma tabiatidagi o'zgarishlarni talqin etish jarayonida shoirning ma'naviy jasoratini kuzatish mumkin. Bir umr quyoshga, komillikka, yetuklikka intilib yashash ortida insonparvarlik ko'zga tashlanadi. Chunki "shoir lirik kompozitsiyani peyzaj asosiga qurar ekan, o'quvchini fikr yuritishga, borliq qonuniyatlarini kuzatish va teranroq tahlil etishga undaydi. Shu orqali she'rning mazmuniga salmoqdorlik, shakliga esa originallik baxsh eta oladi".¹⁴

Abdulla Oripovning shunday she'rlari borki, ularda ranglar turli vositalar, predmetlar orqali anglashiladi. Bu holat shoir lirik kechinmalari yanada betakror usulda ifodalanishiga yordam beradi. Ijodkor fikricha, tabiatning yangilanish hodisasi inson umrini yodga soladi. Bir kun qish nihoya topib, bahor keladi va borliq yashnaydi. Inson hayoti ham azaliy mashaqqatlardan iborat emas. Har bir og'ir kun, zulmat, qora ranglar qurshovi abas, sabr va matonat ortidan bir kun inson umriga nur, oq ranglar jilosi tashrif buyuradi. Predmetlar yordamida rang va adabiyot sintezining lirik kechinmani ifodalash jarayonida aksariyat hollarda, shoirning ijtimoiylikdan xoli bo'lgan sof lirik kechinmalari aks etadi. Abdulla Oripov she'riyatida ranglar jilosi qalbni rangorang tuyg'ularga to'ldiradi. Boisi, kechinmalar turfa ranglar bo'yog'i orqali chizib beriladi. "Abdulla Oripovga kelib she'riyatda rangtasvirga xos tasviriy uslublarni qo'llash yanada professionallashadi"¹⁵, degan ilmiy xulosa zamirida ham ana shu haqiqat yotadi. Lirik kechinmani ifodalashda rang va ohang sintezining peyzaj orqali tasvirlanishi Oripovda bo'rtib ko'zga tashlanadi. G. Ashurova quyidagicha fikrni bildiradi: "Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo'llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma'noli bo'lsa, inson ruhiyati bilan tabiatdagi o'xshashlik bir-birini qo'llaydi va boyitadi"¹⁶. Shu jihatdan Abdulla Oripov kechinmalarini tabiat bilan uyg'unlashtiradi va poetik mukammallikka erishadi.

So'nggi bobda "**Peyzaj lirikasida ijodkor individual poetik tafakkurining suvratlanishi**" masalasi tadqiq qilingan. Ushbu bobning birinchi fasli "**Shoirning peyzaj lirikasida poetik obrazning o'ziga xosligi**" tahliliga bag'ishlangan. Badiiy-estetik tafakkur tiplari o'z tabiatiga mos bo'lgan epik, lirik va dramatik janrlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Lirika janrlari epik va dramatik turga mansub asarlardan farqli o'laroq, hayotiy vokelikning inson ongi-shuuriga ko'rsatgan ta'sirini badiiy-estetik talqin qilish asnosida poetik idrok va ifoda etadi.

¹⁴ Йўлчиев Қ. Лаҳзалар мусаввири. – Т.: Ижод олами, 2019. 2-сон, – Б.27.

¹⁵ Қуроноф С. Замонавий ўзбек адабиётида синтез муаммоси. – Фарғона, 2018.

¹⁶ Ашуроф Г. Абдулла Орипов шеърлятида аңғана ва бадий маҳорат. Филол.фан.ном. дисс.... – Т., 2008.

Shaxs ongi-ruhiyatidagi tuyg‘u va kechinmalar hamda o‘y-mushohadalarning badiiy ifodasi o‘z tabiati va mazmuniga munosib poetik shaklda zuhur topadi. Binobarin, ulug‘ mutafakkir Aristotel fikricha ham, “Hajm asarning mohiyatidan kelib chiqadi. Har doim yaxshiroq tushuniladigan narsa hajman (ya’ni shaklan) ham go‘zalroq bo‘ladi”¹⁷.

Poetik obrazlar ma’lum ijodkorlar tomonidan ishlanib, qiyomiga yetkazilsa ham muayyan adabiy muhit doirasida shakllanib, mukammallik kasb etadi va ma’lum vaqt oralig‘ida an’anaga aylanib boradi. Jamiyatda insonlar tafakkurining o‘zgarishi bilan poetik obrazlarda ham yangilanishlar sodir bo‘ladi. XX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan shoirlar ijodida poetik obrazlar sof dunyoviy, milliy, ijtimoiy asosga qurila boshlandi. Shu bilan bir qatorda mumtoz an’anaviy she’riyat ta’sirida o‘zlashgan obrazlar tarkibida, ularni qo‘llanish doirasida ham evrilish, ham yangilanishlar yuz berdi. Professor Nurboy Jabborovning e’tirofiga ko‘ra, “Muayyan ijodiy konsepsiyaga ega bo‘lgan shoir yoki adibgina adabiyot olamida munosib e’tirof qozona oladi. Ijodiy konsepsiya, o‘z navbatida, ijodkorning adabiy-estetik idealida to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Jumladan, chinakam shoir she’riyatga faqat o‘zigagina xos talablar asosida yondashadi; ijodda qat’iy mezonlarga tayanadi, undan zarracha ham og‘ishmaydi; yuksak ideallarni kuylaydi; she’riyati va shaxsi mutanosib keladi”. Shoir peyzaj lirikasi bilan tabiat musavviri, tabiat kuychisi, tabiat oshig‘i sifatida she’rxonlar ko‘nglidan joy oldi. Bu bejiz emas. Ushbu idrok va ifoda madaniyati shoirning olamni anglash, ko‘rish va tushuntirish tarzining asosidir. She’rxonni ham o‘z mushohadalarga chorlaydi. Tabiat xossalari jonli, tabiiy, tiniq va ma’nodordir.

Tabiatga murojaat qilmagan shoirni uchratish qiyin. Tabiat tasviri orqali muayyan fikrlarini aytishga chog‘langan ijodkorlar ko‘p. Abdulla Oripov izlanishlari ushbu silsilada qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? To‘g‘ri, deyarli barcha shoirlar, musavvirlar tabiat hayotini jonli hilqat sifatida ko‘radi, ko‘rsatishga ham intiladi. Faqat, har bir iste’dod o‘zi tasvirlagan manzaralarga, tabiat ashyolari ifodasiga yuklangan ma’nolari bilan o‘zaro farqlanadi.

Shoir peyzaj lirikasida tabiat hodisalari uyg‘otgan kayfiyat, holat, taassurot va hokazo tuyg‘u-kechinmalarni suratlantirish, o‘y-fikr-mushohadalar mazmunini manzaralar shaklida jonlantirish ustuvor. Bu – badiiy-estetik idrok va ifoda madaniyatidagi mustaqil yo‘nalish. Bu – hassos shoir kashf etgan yangi ifoda yo‘li, tasvir yo‘sini. Bu – tabiat va inson munosabatlaridan tug‘ilgan bag‘oyat tansiq lahzalarni, betakror asnolarni san’at hodisasiga aylantirish, demakdir.

Abdulla Oripov – tabiat oshig‘i. Hayratlanarlisi, tabiat ham shoirga ko‘nglidan joy bergan. Shu bois har ikkisi bir-biriga dilini ochadi, ko‘ngil sirlari ila bo‘lishadi. Bir-birining qadrini kiprigida ko‘taradi. E’zoz-e’tiborini boshiga qo‘yadi. Ana shu dildoshlik, ko‘ngil payvandligi shoir peyzaj lirikasining hayotiyligini, jonli va tabiiyligini ta’minlaydi. Ana shu beaded mehr-muhabbat tufayli bo‘lsa kerak, poetik timsollar oppoq sahifalarga ko‘chib o‘tganda gul-gul ochilib ketadi. Poetik obrazlaridan, satrlar bag‘ridan tabiatning tarovati, gullarning is-bo‘yi, maysa-giyohlarning anvoyi atri gup-gup ufuradi.

¹⁷ Аристотель. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 20.

*Olcha bog'laridan esgan sho'x shamol
Ko'zlarimni birdan yoshlab ketadi.
So'ngra ijod guli ko'rsatib jamol,
Sirli suhbatlarga boshlab ketadi.¹⁸*

Ushbu satrlar "Ko'klam" she'ridan. A.Oripovning ranglar ramziga, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar manzarasiga asoslangan tabiat timsollari dunyoni, odam ruhoniyatini idrok va ifoda qilishdagi yangi ma'no qirralari bilan e'tiborni tortadi. Ko'proq tuyg'ular zamiridan sizib chiqayotgan fikrning suratlari aks ettiriladi.

*Sevgan va sevilgan dillar kuyining
Musiqasin topar bundan g'azalxon.
Kulgudan sachragan – barglarda shudring,
Qizlar qahqahasi – chashmalar xandon...*

Tabiat manzaralarida sevgan va sevilganlarning o'z qo'shig'i, o'z ohangi bor. Shoir buni qalbi bilan tez anglaydi. Kulgu – shudring sachragan barglarga, qizlar qahqahasi esa o'ynoqilib oqayotgan chashmalarga qiyos etiladi. Ular o'zaro bog'liqlikda voqelikning kechinmalarga ko'chgan hayotini ko'rish, zavq tuyush va yana, shu holat kayfiyatlar og'ushida yashashga chorlaydi.

Abdulla Oripovning peyzaj lirikasida tabiatdagi holatlar evrilishi, xossalarning turlanishi va tuslanishi, ohanglar junbushi, ranglar qo'shig'i inson ruhoniy hayotidagi poklanish bilan uyg'unlikda kuzatiladi, badiiy tadqiq etiladi. Bunday lirik asarlarni kuzatish birinchidan, peyzajning badiiy tasvirdagi o'rnini teranrok o'rganish imkonini bersa, ikkinchidan, shoir badiiy mahorati haqida ham muayyan tasavvurlar hosil qildiradi.

Shoir tanlagan badiiy ifoda usuli tasvirlanayotgan voqelik, narsa-predmetning, kechinma yoki mushohadaning mohiyatiga daxldor tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, she'riy asarlarida A.Oripov badiiy tafakkur tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlar boshqalarning individual uslublardan tamoman o'xshamasligini ko'rsatadi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida "**Ijodiy individuallikning poetik uslubda namoyon bo'lishi**" tahlil etildi. Abdulla Oripov she'riyatning ikkinchi bir qudrati, u boshqa xalqlar uchun oddiy ko'rinishi mumkin bo'lgan bir real holatdan o'zbek uchun butunlay hayot-mamot masalasi bo'ladigan favqulodda vaziyatni ko'rsatib, o'quvchining umrlik g'ujurini uyg'otadi. "Adabiyotda hamisha ikki toifa ijodkorlar davr surib kelganlar. Ulardan birinchisi, ta'bir joiz bo'lsa kosiblardir. Kosiblar kimlar? Adabiyotdagi kosib faqatgina istak va orzulariga ko'ra, balki tirikchilik taqozosi tufayli yoxud nom qozonib yashash ishtiyoqida qo'lga qalam oladilar. Ba'zilar esa bu sohaga mutlaqo tasodif tufayli aralashib qolgan omadsiz mehnatkashlar bo'lib chiqadi. Nima bo'lgan taqdirda ham adabiyotda kosib uning sohibiga omad keltirgan emas. Ikkinchi toifa esa, qalb amri bilan ijod qiluvchi o'zi yoqqan alangada o'zi qovuriluvchi cheksiz mashaqqatli mehnatdan huzur va halovat olguvchi, qisqasi, ijodni qismat deb bilguvchi shaxslardir"¹⁹.

¹⁸ Орипов А. Шоирнинг туғилиши. – Т.: Адабиёт, 2021. – Б.216.

¹⁹ Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Т.: Ёш Гвардия, 1988. – Б.82.

A.Oripovning programm she'rlaridan biri "Sozim"da uning o'zi ham adabiyotni qismat deb bilan nurli siymo sifatida gavdalanadi va uning individualligini tashkil qilgan tomonlar haqida shoirona otashin bo'lib yozadi.

*Xayol kabi keng erur olam,
Mayda gapni ko'tarmagay she'r.
Kerak bo'lsa mening uchun ham
Javob berar bobom Alisher.*²⁰

Ushbu she'rning xotimasi jo'n tushunilmasligi kerak. Shoir tashbeh va g'urur bilan o'zi ko'zlagan ufq – badiiy tafakkur cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy darajasiga yetishni orzu qilgan. Zero, san'atkor qismatining betakror bo'lishida izlanish, ulug'lardek bo'lishga intilishning ham alohida hissasi bo'ladi. Abdulla Oripov buyuk adib va shoirlarni qanchalik ko'p o'rganmasin, o'z ijod konsepsiyasidan chekinmaydi. Hali hech kim yozmagan o'z ruhiga mos, o'z ohangi va so'zini topib she'rini bitadi.

Bugungi she'riyatimizda Shaxs va Jamiyat psixologiyasini o'rganish, tushunish va estetik baholashdagi badiiy-falsafiy fikr o'ziga xosligi bilan avvalgi davrlardan farqlanadi. Ijodiy mayllardagi ohorli talqinlar, idrok va ifodaning yangi yo'nalishlari badiiy-estetik tafakkur takomilining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi. Bu borada taniqli shoir Abdulla Oripov she'riyatida yorqin tajassum topgan peyzaj lirikasining badiiyati yuqori notalarda kuylangan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Tabiatning to'rt fasli manzaralaridan ko'ngligaingan ranglar ramzi timsolli mazmuni bilan alohida yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. U bugungi falsafiy she'riyatining uzviy bir tarmog'i tariqasida ham najib. Shoirning "Quyosh bilan turib erta tong", "Shalola", "Majnuntol", "Gul va shabnam", "Bo'ron", "Cho'qqida", "Bahor keldi", "Tabiatni sevdim", "Bahor qizi", "Quloq os: nur inar yashil bog'larga", "Tog'lar o'xshar inson qalbiga" she'rlari fikrlash uchun katta imkoniyatlar beradi.

Abdulla Oripov chinakam shoir – san'atkorga xos salohiyat bilan she'riy kompozitsiya quradi va sayqallaydi. Shoir bunga dastavval "qanday tasvirlash"dan ham oldin "nimani tasvirlash"ni birinchi navbatga qo'yish bilan erishadi. U birinchi galda o'zi ifodalamoqchi bo'lgan poetik g'oya va shunga muvofiq poetik mazmuni aniqlab, so'ngra pishitadi. Keyin she'rning kompozitsion "imoratiga" qo'l uradi. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov: "Lirik shoir o'z shaxsiyati uchun butunlay tashqi bo'lgan, o'ziga begona bo'lgan dunyodan olgan tuyg'uni ifoda qilgan vaqtida ham u sub'ektivdir. Chunki u ifoda etgan har qanday tuyg'u ijod qilish vaqtida ham uning o'z tuyg'usi bo'lib qoladi"²¹, – deya yozganida ayni shu holatni nazarda tutgan edi.

Demak, lirik janrlar va poetik shakllar takomili ijtimoiy voqelik, hayot materialiga yondashish, so'z san'atkorining badiiy-estetik niyati va tafakkur tarzi taqozosi tufayli hosil bo'ladigan ijodiy izlanish samarasidir. Har bir shoirning adabiy hodisa ekanligini belgilaydigan muhim jihatlari bo'ladi. Shulardan biri, uning o'ziga xos poetik uslubining namoyon bo'lishidir.

²⁰ Oripov A. Tanqan asarlar. 1-jild. – T.: Shark, 2021, – B.107-108.

²¹ Sharafiddinov O. Talant – xalq mulki. – T.: Esh gvardiya. 1979. – B.147.

XULOSA

Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati yuzasidan olib borilgan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarga kelish mumkin:

1. Tabiat – ijod ahli uchun ilhom manbai, jamiyat voqeligiga konseptual munosabatini bildirish uchun poetik vosita. Ijodkorning tabiatga munosabati, peyzaj tasviriga ijodiy yondashuv jarayoni aksar quyidagi ikki bosqichda: a) tabiat hodisalarini estetik idrok etish; b) peyzajning badiiy tasviri tarzida namoyon bo‘ladi. Estetik idrok va badiiy tasvir jarayonlari iste’dodning darajasiga ko‘ra farqlanadi. Abdulla Oripov singari fenomenal ijodkorlar peyzaj orqali inja lirik kechinmalarni ham, katta falsafiy umumlashmalarni ham birday mahorat bilan ifodalay biladi.

2. Abdulla Oripov she’riyatida tabiat tasviri tabiatni shunchaki his qilishgina emas, balki uni muayyan poetik obraz va ramzlar vositasida yuksak ijodiy-intellektual idrok etish va san’atkorona tasvirlash obyektidir. Shoir tabiatni jonli yaratiq sifatida talqin etadi, o‘z estetik idealini, lirik tuyg‘ulariyu ijtimoiy-falsafiy umumlashmalarini peyzaj tasviriga poetik sintez qiladi. Bu turdagi she’rlarida o‘zini tabiatning bir qismi deb biladi, tabiatga xos sirli ohanglarni satrlar qa’riga joylaydi, ularda mazmun, shakl, obraz hamda vazn yagona tizimni, poetik silsilani tashkil etadi.

3. Shoir lirik asarlarida tabiatni poetik talqin qilish usullari rang-barang bo‘lib, peyzaj tasviriga doir she’rlarida ijodkorning badiiy mahorati va falsafiy-estetik qarashlari o‘ziga xos badiiy sintez qilinadi. Ushbu xususiyatga ko‘ra, Abdulla Oripovning peyzaj tasviriga xos badiiy usullari quyidagicha tasnif asosida tadqiq qilindi: 1) peyzaj ijodkor falsafiy tafakkurining omili sifatida; 2) peyzaj – sof lirik kechinma vositasi; 3) peyzaj vositasida Vatan va xalq obrazi mohiyatini ochish; 4) peyzajda ijtimoiylikning aks etishi; 5) tabiat ramzlari orqali o‘tmish tasvirini yaratish. Qaysi badiiy usulda ijod qilmasin, shoir tabiat tasviri zamirida hayot falsafasini betakror talqin etdi. Peyzaj ijodkor lirik kechinmasini ifodalashda o‘ziga xos poetik vosita vazifasini o‘tadi. Tabiat tasviriga oid she’rlarida ham shoir ona Vatani va xalqiga bo‘lgan otashin muhabbatini yuksak pardalarda tarannum etdi. Abdulla Oripov jamiyat hayotida faol ishtirok etgan ijodkor sifatida ijtimoiy voqelikka konseptual munosabatini peyzaj lirikasida ham yorqin ifodalay oldi. Vatan va millat tarixi, bolalik xotiralari, tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i bilan bog‘liq o‘ylarini tabiat tasviri bilan uyg‘unlikda ohorli badiiy talqin qildi.

4. “Bahor” she’ri Abdulla Oripovning sof tabiat tasviri berilgan she’rlarida ham ijtimoiy va estetik idealini ifoda eta olgani isbotidir. She’r faqat tabiat voqeligi sanalgan yil fasllari evrilishi bilan bog‘liq kechinmalargina emas, shoirning Ona Vatan va xalqi bilan bog‘liq orzu-armonlari ham betakror badiiy talqin etilgani jihatidan qimmatlidir. Shoir bahor ko‘zgidan millat taqdiriga, uning bir tomondan shonli, ikkinchi tomonidan, murakkab va ziddiyatli tarixiga nazar soladi. Hurriyat bahori haqidagi orzularini ifodalaydi.

5. Abdulla Oripov – faylasuf shoir. Peyzaj tasviri orqali berilgan she’rlaridagi falsafiy umumlashmalar o‘quvchini hayot haqida, inson va uning qismati, Vatan va xalq taqdiri haqida mushohada yuritishga undaydi. Masalan, “Burgut” she’ri orqali tagmatnda inson ulug‘vor maqsadlar bilan yashashi

zarurligini falsafiy-estetik talqin etsa, “O‘zbekistonda kuz” she’rida “diqqanafas uy”, “bir pari faslning og‘ushida mast” olam, “shabnamning shovullashi”, “bo‘zargan tonglar”, “erinchoq quyosh”, “bargi xazonlarning nafis yaltirashi” kabi kutilmagan peyzaj detallari vositasida ijtimoiy-falsafiy umumlashmalarni taqdim etadi.

6. Shoir peyzajga oid poetik detallarni mahorat bilan qo‘llaydi va she’rlarida bir qancha ma’no qatlamlariga ega badiiy xulosalarini taqdim etadi.. Birgina tog‘ detali orqali shoir tasvirlagan ohorli manzaralar uning asarlari yuksak san’at maqomida yaratilganini tasdiqlaydi. Masalan, “Uzoqlarda zalvorli tog‘lar” (“Sen bahorni sog‘inmadingmi?”), “Balanddasan tog‘lar qoridan” (Sarlavhasiz she’r), “Tog‘day og‘ir yukni kiftida olib” («Shoir»), “Yugurik suv o‘gay tog‘lar orasida” (To‘rtlik), “Sen yurgan tog‘larda qolmagay izim” (“Dunyoni qizg‘anma mendan”), “Tog‘lar ko‘ksin qucha olmasman” (“Burgut”), “Bulutlar talpinar tog‘larga” (“Talpinish”), “Yo‘qlikka singadi tog‘lar kelbati” (“Sayyoh”) “Tog‘larning qoridek bokira” (“Xotira”) “Kimlardir ilmda tog‘ ham bo‘ldilar” (“Ma‘mun akademiyasi”) kabi she’rlarida bir-biridan rang-barang tashbehlar san’atkorona qo‘llangan. Bu kabi misollar peyzajga doir poetik detallar shoir uchun tasvir vositasi ekanini, u peyzaj orqali konseptual falsafiy-estetik xulosalarini poetik talqin etganini ko‘rsatadi.

7. Abdulla Oripov peyzaj lirikasida tabiat hodisalari uyg‘otgan kayfiyat, holat, taassurot va tuyg‘u-kechinmalarni suratlantirish, o‘y-fikr-mushohadalar mazmunini manzaralar shaklida jonlantirish ustuvor. Bu – badiiy-estetik idrok va ifoda madaniyatidagi mustaqil yo‘nalish. Bu – hassos shoir kashf etgan yangi ifoda yo‘li, tasvir yo‘sini. Bu – tabiat va inson munosabatlaridan tug‘ilgan tansiq lahzalarni, betakror lahzalarni san’at hodisasiga aylantirish mahorati natijasidir.

8. Peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar Abdulla Oripovning ko‘plab she’rlarida tabiat manzaralari badiiy obraz sifatida keltirilib, badiiy tasvir vositasi bo‘lib keladi. Bunday lirik asarlarni kuzatish, birinchidan, peyzajning badiiy tasvirdagi o‘rnini teranroq o‘rganish imkonini bersa, ikkinchidan, shoir badiiy mahorati haqida ham muayyan tasavvur hosil qildiradi.

9. Shoir she’riyatida kompozitsiya aniq ijod konsepsiyasi asosiga quriladi. Abdulla Oripov “qanday tasvirlash”dan ham oldin “nimani tasvirlash”ni birinchi navbatga qo‘yadi. Shoirning peyzaj lirikasida she’rning har bir so‘zi va jumlasini, har bir satri va bandi badiiy maqsadga bo‘ysundiriladi. Ko‘pchilik boshqa shoirlardan farqi shundaki, Abdulla Oripov hech bir o‘rinda sun‘iylikka yo‘l qo‘ymaydi. She’rning kompozitsion “imorati” har bir detaligacha konseptual g‘oyaning yuksak badiiy talqiniga xizmat qildiriladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulla Oripov she’riyatida peyzaj tasviri orqali shoir estetik ideali, ijod konsepsiyasi ifodalangan. Shoir uchun peyzaj hayot falsafasini, inson, tabiat va jamiyat munosabatlarini poetik talqin etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ijodkor tabiat tasviri vositasida, birinchidan, milliy ruhiyatni, ikkinchidan, umumbashariyatga daxldor falsafiy qarashlarni yuksak san’at darajasida ifodalay oladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ
АЛИШЕРА НАВОИ
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

ЗАРИПОВ АЗАМАТ ГУЛОМОВИЧ

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО ПЕЙЗАЖНОЙ ЛИРИКИ
АБДУЛЛЫ ОРИПОВА**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Fil1572.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Жабборов Нурбой Абдулхакимович**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Кувватова Дилрабо Хабибовна**
доктор филологических наук, профессор

Улугов Абдулла Убекович
кандидат филол. наук, профессор

Ведущая организация: Навоийский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится 12 июня 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Ходжиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за номером 289). (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Ходжиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.)

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № ____ от « _____ » _____ 2024 года).

Х.А.Дадабоев
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор филол. наук, профессор

К.У.Пардаев
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор филол. наук, доцент

Б.Н.Каримов
Заместитель председателя Научного семинара
при Научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор филол. наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении ведутся последовательные исследования характера душевного отражения художественной литературой человеческой психики, мыслей, чувств, мечтаний, идеалов, способа изображения эстетических взглядов, связанных с образом человека, отношениями личности и общества на фоне большинства образов пейзажа или пафоса. Потому что природа – главный объект образа художественной литературы, источник вдохновения творческих личностей. Гармония человеческой психики и мировоззрения с природой занимала особое место в развитии художественной литературы во все времена.

Мировое литературоведение постоянно акцентирует внимание на том, что в развитии литературно-эстетического мышления творца понятийное значение имеют четыре элемента – земля, вода, воздух и огонь, считающиеся основой существования природы и, в частности, Вселенной. Чем важнее взаимоотношения человека и природы для создания редких образцов художественной литературы, в частности поэзии, являющейся ее наиболее активным видом, тем значительнее образ пейзажа в определении эстетического идеала поэта или писателя.

В узбекском литературоведении систематически проводятся исследования художественного выражения концепции гармонии человека и природы, а также поэтических факторов, присущих этому процессу. Изучение в этом аспекте пейзажной лирики великого поэта, Героя Узбекистана Абдуллы Орипова, создавшего школу современной узбекской поэзии, несомненно, обогатит литературоведение новыми научно-теоретическими выводами. Потому что: “Абдулла Орипов был обладателем редкого таланта, поднявшего узбекскую литературу на новый уровень. Его высокохудожественные, глубоко философские стихи крепко проникли в сердца нашего народа. Драматические и публицистические произведения, эпосы и переводы внесли огромный вклад в развитие нашей литературы. Абдулла Орипов как автор Государственного гимна Республики Узбекистан навсегда останется в сердцах нашего народа”²². Действительно, заслуга Абдуллы Орипова в возвышении национального эстетического мышления, в поэтическом синтезе гармонии человека и природы, времен года и философии жизни, в том, что созданные поэтом шедевры искусства отражают многовековые традиции устного творчества нашей нации, обобщение опыта нашей классической литературы и мировой эстетической мысли, посредством пейзажа в произведениях поэта раскрывается неувядаемая душа, самобытная природа узбекского народа, изучение которых считается одной из актуальных научных проблем.

²² Мирзиёев Ш. Одамлар яхши яшаши учун зарур шароитлар яратиш – барча рахбарларнинг асосий вазифасидир. Халқ сўзи, 2017 йил 28 февраль. 40 (6998)-сон.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года №УП-2995 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и пропаганды древних письменных источников”, от 13 сентября 2017 года №УП-3271 “О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения”, Постановлении от 2 декабря 2020 года №ПП-4906 “О широком праздновании 80-летия со дня рождения Героя Узбекистана, Народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова”, докладе на тему: “Развитие литературы и искусства, культуры – важный фактор повышения духовности нашего народа”, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Связь исследования с приоритетными направлениями науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики “Социальное, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

Степень изученности проблемы. В узбекском литературоведении созданы многочисленные исследования поэзии, эпоса Абдуллы Орипова и их роли в совершенствовании эстетического мышления нации. Исследованы литературный портрет поэта, этапы совершенствования его творчества и мастерство создания поэтического образа. В определенной степени проанализированы его творческие способности, лирические произведения, поэтические открытия, сделанные художником при создании национального характера²³. В произведениях Абдуллы Орипова исследованы такие вопросы, как выражение национального духа, творческие способности, последовательное продолжение многовековой узбекской классической поэзии в лирике поэта, в частности, творчества Алишера Навои, а также психобиографическая специфика отдельных образов²⁴. В поэзии поэта выражены аналитические рассуждения о гармонии философии жизни и художественного мастерства, умении использования художественных приемов, лежащих в основе классической поэзии, соотношении художественного слова и поэтического образа в лирике, отношении к народному сознанию и пафосу²⁵. Исследованы гармония художественного образа и философской сущности, мастерство психологического анализа,

²³ Кўшжонов М. Онажоним шеърият. – Т.: Ўқитувчи, 1994; Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Ёш гвардия, 1979; Кўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. – Т.: Маънавият, 2001; Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: Sharq, 2020.

²⁴ Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2018; Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. Фафур Фулом, 2007; Жабборов Н. Замон, мезон шеърият. – Т.: Фафур Фулом, 2015; Шодмонов Н. Шоир ижодининг олмос қирралари. Ўзимники эрур шу созим. – Қарши: ҚарДУ, 2011. – Б.45-53; Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Жўракулов У. Армон талқинлари / Худудсиз жилва. –Т.: Фан, 2006. – Б.143-151.

²⁵ Ғаниев И., Афоқова Н. Озод руҳ фалсафаси. – Т.: Фан, 2007; Ашурова Г. Сўз ва тимсол уйғунлиги. – Т., Маънавият, 2007; Ҳамдамов А. Абдулла Орипов шеъриятида халқона поэтик тафаккур муаммоси. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2011.

теоретическое совершенствование творческого мышления на стыке таких теоретических проблем, как поэтическая форма и содержание. Кроме того, поэзия поэта также была изучена в таких направлениях, как художественные открытия в выражении национальной психики, комического характера и индивидуальной интерпретации, литературно-эстетической концепции, гармонии лирического чувства и поэтического образа²⁶.

Книга Абдусаида Кучимова “Я - поэт, если этого хотите” (“Men shoirman, istasangiz shu”) представляет особую ценность тем, что в ней раскрыты качества Абдуллы Орипова как человека и поэта, мыслителя и деятеля, истинного патриота, направившего свой патриотический и творческий потенциал на благо родного народа, публициста и оратора, активно реагирующего на проблемы общества. Книга Абдурахима Эркаева “Гений Абдуллы Орипова” (“Abdulla Orirov dahosi”) примечательна тем, что в нем творческое мышление поэта анализировано в контексте мировой литературы и философии, по-новому исследованы социально-философский и художественно-эстетический потенциалы его поэзии. В книге “Узбекистан – милая родина” (“O‘zbekiston – dilbar vatanim”) освещена история создания текста Государственного гимна и ряда других произведений под авторством поэта. Абдулла Орипов глубоко научно проанализировал специфические стороны переводческого мастерства, историю возникновения перевода “Божественной комедии” Данте Алигьери, ставшего вершиной его деятельности в этой области, его участие в мероприятии в Равенне, посвященном творчеству Данте, а также переводы его произведений на русский язык²⁷.

В этих исследовательских и научно-популярных работах Абдулла Орипов в той или иной степени отнесся к вопросу о художественности пейзажной лирики. Но эта тема не была исследована отдельно в монографическом плане. Принимая во внимание, что великий поэт Абдулла Орипов не только создавал уникальные образцы образа пейзажа, но и в своих публицистических и просветительских выступлениях, литературных беседах высказывал уникальные мысли об отношении к природе, ее любви и влиянии

